

4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по ускорению реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года” от 21 февраля 2022 года № 83. Национальная база данных законодательства, 11.12.2024, № 24.09.833/1016.

5. Миронов, А. В. Устойчивое развитие и экономика / А. В. Миронов. — М.: Наука, 2019.

6. Информационное издание Министерства Экономики и финансов Республики Узбекистан «Бюджет для граждан-2024». Т.: МЭФ. 2023. openbudget.uz.

7. Информационное издание Министерства Экономики и финансов Республики Узбекистан «Бюджет для граждан-2025». Т.: МЭФ. 2024. openbudget.uz.

AHOLINI IJTIMOIY HIMoya QILISHNI MOLIYALASHTIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Xamdamov Shavkat Komilovich
*TDIU “Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrasi professori, PhD*

Annotatsiya. Maqolada aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish masalalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari muhokama qilinib, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha qo'yilgan maqsadlar, vazifalar va ularni moliyalashtirishning asosiy manbalari tadqiq etilgan. Maqolada davlat, xususiy va xalqaro manbalardan foydalanish asosida kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning muvaffaqiyatli yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya, moliyalashtirish, kambag'allik, byudjet.


Jahonda deyarli barcha mamlakatlarda yuz berayotgan demografik o'zgarishlar va ayniqsa iqtisodiyotni global doirada qamrab olgan moliyaviy inqirozlar natijasida aholini ijtimoiy himoyalash va kambag'allikka qarshi kurashish masalalari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni tubdan o'zgarmoqda. “Xalqaro mehnat tashkilotining “Ijtimoiy himoyaning minimal darajalari to'g'risida”gi tavsiyalarida”, barcha mamlakatlar o'z fuqarolari uchun minimal ijtimoiy yordamning bazaviy darajasini kafolatlashiga erishishi lozimligi ta'kidlangan. O'z navbatida, ijtimoiy yordamning bazaviy darajasini kafolatlash fuqarolarning pensiya ta'minotini ham nazarda tutadi va iqtisodiy islohotlar sharoitida inson uchun muhim ijtimoiy kafolat sifatida namoyon bo'ladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish jamiyat barqarorligini ta'minlash va fuqarolarning turmush sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kambag'allik va ijtimoiy zaiflik darajasini pasaytirish, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi asosiy xizmatlarning mavjudligini ta'minlash, ijtimoiyadolat va aholining barcha qatlamlari uchun teng

imkoniyatlar yaratish, iste'mol va talabni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish, fuqarolarning davlat institutlari va ijtimoiy tizimga bo'lgan ishonchini oshirishga imkon beradi.

Aholining turmush samaradorligini oshirish va daromadlarni ko'paytirishga qaratilgan strategiyaga muvofiq, 2030 yilga borib jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish, shuningdek, "o'rtacha daromadli davlatlar" safiga qo'shilish maqsadi ko'yilgan. Bundan tashqari, 2026 yilga qadar esa kambag'allikni 2022 yilga nisbatan ikki barobarga kamaytirish, 2030 yilga qadar esa kambag'allikni keskin qisqartirish va kambag'allikka tushish xavfi ostida turgan 4,5 million aholining daromad darajasini oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Birok, ayni paytda, ayniqsa qishloq joylarda aholining ko'pchiligi yetarli daromad manbaiga ega emasligi haqida gapirish kerak. Har qanday mamlakatda bo'lganidek, O'zbekistonda ham kam ta'minlangan aholi qatlami mavjud. Turli taxminlarga ko'ra, O'zbekiston aholisining bugungi kunda taxminan 12-15 foizi kambag'allik chegarasidan past darajada turmush kechiradi. Bu raqamlar faqat sonlar emas, balki millionlab insonlarning hayoti haqida gapiradi – aholimizning 4-5 million nafari bu holatta duch kelmoqda. Bu esa ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini chuqur tahlil qilish va uni yanada takomillashtirishning zarurligini ko'rsatadi. Ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish orqali kambag'allikka qarshi kurashning samaradorligini oshirish va barcha fuqarolar uchun yaxshi turmush sharoitlarini ta'minlash mumkin [2].

Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini moliyalashtirish muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muhim elementi bo'lib, bunday dasturlarni barqaror moliyalashtirishni ta'minlash uchun turli manbalar va mexanizmlardan foydalanish zarur bo'ladi. Quyidagi 1-rasmda uni moliyalashtirishning asosiy yo'llari keltirib o'tilgan.

Камбағалликни қисқартириш ва аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тадбирларини молиялаштириш манбалари



1-rasm. Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini moliyalashtirish manbalari[3]

Kambag'allikni qisqartirish dasturlarini moliyalashtirish dolzARB masalalardan biri hisoblanadi, chunki kambag'allik ko'plab mamlakatlar duch

kelayotgan asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, ijtimoiy muammolarni kamaytirish va aholining turmush darajasini yaxshilash uchun kambag'allikni qisqartirish dasturlarini moliyalashtirish zarur bo'lib, mamlakatda kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishlari va choralarini quyidagi yo'nalishlarda ko'rish mumkin deb hisoblaymiz:

- Aholining barcha qatlamlari uchun ta'lim darjasini va sifatini oshirish;
- Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish va sohani raqamlashtirish;
- Mehnat bozorini rivojlantirish va yangi ish o'rinalarini yaratish;
- Aholining eng zaif guruhlari uchun ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yaxshilash va uni takomillashtirish;
- Infratuzilmani yaxshilash va rivojlantirish;
- Kambag'al oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish va ijtimoiy himoya choralarini rivojlantirish;
- Kambag'al aholi uchun o'qitish va malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish;
- Kambag'al aholi qatlamlari uchun moliyaviy xizmatlar va mikromoliyalashtirishdan foydalanishni kengaytirish va boshqalar.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoyalash va kambag'allikka qarshi kurashni moliyalashtirish mexanizmida quyidagi yo'nalishlarda moliyalashtirish tizimini takomillashtirish o'z natijasini beradi deb hisoblaymiz:

- Aholiga ko'rsatiladigan barcha ijtimoiy yordamlarni "ijtimoiy karta" orqali moliyalashtirishga o'tkazish;
- Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun ish beruvchi tomonidan zaxiralangan ish o'rnlari to'g'risida ma'lumotlar real vaqt rejimida yangilab boriladigan platformani ishga tushirish;
- Nogironligi bo'lgan bolalar uchun ijtimoiy shartnomasi asosida davlat-xususiy sheriklik asosida kunduzgi parvarish xizmatini yo'lga qo'yishni moliyaviy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash va boshqalar.

Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoya qilishni moliyalashtirish davlat, xususiy va xalqaro resurslardan foydalanishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu chora-tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat aholining turmush sifatini yaxshilash, balki barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik uchun sharoit yaratishga ham imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Ijtimoiy himoyaning minimal darajalari to'g'risida"gi tavsiyalari №202. Jeneva. 14 iyun 2012 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. Xalq so'zi gazetasi.
3. Hamdamov, S. (2024). Kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashning moliyalashtirish. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 13, 64-66.